



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH

Askarova Mashxura Akmal qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
magistranti*

asqarovamashhura0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada differensial yondashuv asosida nofilologik yo'nalishlarda o'zbek tilini o'qitishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Til o'rganish jarayonida talabalar kasbiy yo'nalishi, tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarini e'tiborga olish muhimligi asoslab beriladi. Maqolada xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar g'oyalari tahlil qilinib, zamonaviy yondashuvlar – fleksibl guruhlash, murakkablik darajasiga asoslangan topshiriqlar, loyiha asosida o'qitish kabi metodlar orqali differensial yondashuvning amaliy imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, 4K modeli (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik) elementlarini o'z ichiga olgan metodik yechimlar talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etishi ilmiy asosda izohlanadi. Maqola o'zbek tilini kasbiy kontekstda o'rgatishda differensial yondashuv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy va metodik tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida differensial yondashuvni qo'llashda yuzaga keladigan ayrim metodik va tashkiliy muammolar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: differensial yondashuv, nofilologik yo'nalish, TPACK modeli, til kompetensiyasi, 4K modeli, fleksibl guruhlash, loyiha asosida o'rganish, interaktiv metodlar.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методические основы преподавания узбекского языка на нефилологических направлениях с использованием дифференцированного подхода. Обосновывается необходимость учета профессиональной направленности студентов, их уровня подготовки и индивидуальных потребностей в процессе обучения. Проанализированы идеи отечественных и зарубежных исследователей, а также практическое применение таких современных методов, как гибкое группирование, задания по уровням сложности, обучение на основе проектов. Особое внимание уделено интеграции элементов модели 4К (креативность, критическое мышление, коммуникация и сотрудничество) в учебный процесс. Статья предлагает научно обоснованные рекомендации по повышению эффективности преподавания узбекского языка с учетом профессионального контекста. Вместе с тем, в исследовании выявлены некоторые методические и организационные проблемы, возникающие при применении дифференцированного подхода, и предложены пути их решения.

Ключевые слова: дифференциальный подход, нефилологическая ориентация, модель TPACK, языковая компетенция, модель 4К, гибкая группировка, проектное обучение, интерактивные методы.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching Uzbek in non-philological fields using a differentiated approach. It emphasizes the importance of considering students' professional orientation, level of preparedness, and individual needs during language instruction. The paper analyzes both foreign and local scholarly views and highlights practical strategies such as flexible grouping, tiered assignments, and project-based learning. Special attention is given to the integration of the 4C model (creativity, critical thinking, communication, and collaboration) into language teaching. The study offers evidence-based recommendations for improving the effectiveness of Uzbek language instruction through differentiation, especially in professionally oriented educational settings. At the same time, the study identifies certain methodological and organizational



challenges in implementing the differentiated approach and explores possible solutions to overcome them.

Keywords: differential approach, non-philological orientation, TPACK model, language competence, 4K model, adaptive grouping, project-based education, interactive methods.

Hozirgi davr ta'lim tizimi o'z oldiga faqat bilim berish emas, balki har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini shakllantirish va mustaqil fikrlovchi, muloqotga kirisha oladigan, kreativ yondasha oladigan avlodni tarbiyalashni maqsad qilmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga davlat tilini egallash darajasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, san'at, sport kabi nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun o'zbek tilining zamonaviy, amaliy va kommunikativ funksiyasini o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bu auditoriyaga mo'ljallangan o'qitish usullari, dars mazmuni va til kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi filologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalardan keskin farq qiladi. Shuning uchun differensial yondashuv bugungi kunda til o'qitish metodikasida muhim o'qitish usuli hisoblanadi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos metodikani qo'llash, o'qitish samaradorligini oshirish bilan birga, til o'rganishdagi qiyinchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv 4K modeli (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik) bilan uyg'unlashganda, ta'lim samaradorligi yanada oshadi.

Differensial yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning bilim darajasi, o'rganish uslubi va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'limni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi har bir talabaning maksimal potensialini ochish va rivojlantirishdir. Differensial yondashuvning ahamiyatiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim uslublari til o'rganish jarayonining samaradorligini ancha oshiradi. Pedagogika, psixologiya va lingvodidaktika sohalarida olib borilgan izlanishlar hamda turli olimlarning fikrlari ushbu mavzuning muhimligini va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Jumladan, D. Nunan va J. Scrivener tadqiqotlarida til o'rganish jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini e'tiborga olishga bog'liqligi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, har bir o'quvchi tilni o'zicha o'zlashtiradi: kimdir eshitish orqali, boshqasi ko'rish, uchinchi esa amaliy faoliyat orqali samarali o'rganadi. Shuning uchun dars jarayonini bir xil formatda tashkil etish emas, balki turli uslublarni sintez qilish, har bir talaba uchun qulay o'quv muhiti yaratish zarur.

Nunan shuningdek, til o'rgatishda "shaxsga yo'naltirilgan yondashuv" konsepsiyasini ilgari surib, darslar strukturasini o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va hayotiy tajribasiga mos ravishda loyihalashni tavsiya qiladi. Scrivener esa samarali til ta'limi uchun o'qituvchining faollik darajasini emas,



balki o'quvchining darsdagi ishtiroki va tashabbusini kuchaytirish zarurligiga ahamiyat beradi. U til o'rganish – bu o'qituvchining monologi emas, balki o'quvchining tajriba orttirish jarayoni ekanini alohida ta'kidlaydi[1].

Ushbu yondashuvlar nafaqat o'quvchi motivatsiyasini oshiradi, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va tilni real kommunikativ holatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, D. Nunan va J. Scrivenerning qarashlari zamonaviy differensial yondashuvga tayangan til o'rgatish metodikasi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Harmer esa til o'rgatish jarayonida har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini chuqur tahlil qilgan holda, ularga mos dars rejalari va strategiyalarni ishlab chiqishni zarur deb hisoblaydi. U, ayniqsa, talabalarning o'ziga xos o'rganish uslublari, bilim darajalari va shaxsiy motivatsiyasini inobatga olish orqali ta'limni samarali tashkil etish mumkinligini ta'kidlaydi. Harmerning fikriga ko'ra, o'quvchilarning motivatsiyasi ularning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu sababli dars jarayonida differensial yondashuvni qo'llash motivatsiyani oshirishning eng samarali vositalaridan biridir[2].

Bu tarzda moslashtirilgan metod va uslublardan foydalanish nafaqat o'quvchining qiziqishini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, tilni faol qo'llay olishi va o'rganishdan zavq olishini ta'minlaydi.

Rossiyalik pedagog V. A. Slastenin ham ta'lim jarayonida individual yondashuvning psixologik aspektlarini chuqur tahlil qilib, har bir o'quvchi uchun shaxsiy o'quv strategiyalarini ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi[3].

Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli (Texnologiya, Pedagogika va Mazmun bilimlari uyg'unligi) zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning raqamli vositalardan puxta foydalanishini ta'minlaydigan muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ularning ta'kidlashicha, samarali ta'lim tashkil etish uchun o'qituvchi faqatgina dars mazmunini yoki texnologiyani bilishi yetarli emas – aynan shu uch komponentning uyg'unlashuvi eng muhim omildir[4]. Mazkur model individual yondashuvga asoslangan til o'qitishda ayniqsa dolzarb bo'lib, onlayn platformalar, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan interaktiv resurslar, shuningdek, moslashtirilgan o'quv dasturlari orqali har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. TPACK modelining amaliy qo'llanilishi ta'limni faollashtiradi, talabalarni darsga chuqurroq jalb etadi va ularning til o'rganish samaradorligini oshiradi.

F. Qodirov va D. Fayzullayeva o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida differensial yondashuvni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitish muhimligini alohida qayd etadi. Ularning fikricha, bu jarayon o'qituvchilarni maxsus trening va seminarlar orqali kasbiy jihatdan tayyorlashni talab qiladi. Aynan shunday amaliy mashg'ulotlar orqali pedagoglar har bir talabani individual o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning ehtiyoj va qobiliyatlariga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishga zamin yaratadi[5]. Ushbu yondashuv nafaqat dars sifati va samaradorligini oshiradi, balki ta'lim oluvchilar bilan uzviy,



mazmunli va barqaror pedagogik aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali differensial yondashuv real o'quv muhitida tizimli va natijador tarzda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Sh. Mamarajabov ta'lim jarayonida differensial yondashuvni samarali qo'llash uchun o'qituvchi, avvalo, har bir talabani chuqur o'rganishi, ularning individual xususiyatlarini tahlil qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, darslarni rejalashtirishda turli metodlardan foydalanish, dars mazmuniga mos bo'lgan materiallarni tanlash, shuningdek, baholashning turli usullaridan foydalanish yuqori natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi[6].

Differensial yondashuvning yana bir muhim tomoni – bu baholash tizimiga ta'siridir. N. Xakimxodjayevning ta'kidlashicha, odatiy testlar va baholash usullari ko'pincha barcha talabalar uchun bir xil mezonlarga tayanadi. Bu esa turli imkoniyat, tayyorgarlik va qobiliyatga ega talabalarni teng sharoitda baholashda adolatsizlikka olib keladi. Chunki har bir talabani bilimi, o'rganish uslubi va rivojlanish tezligi bir xil emas[7]. Shu sababli, baholash jarayonini ham talabalarning individual farqlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Masalan, rivojlantiruvchi (formativen) baholash, portfolioga asoslangan baholash yoki o'zaro baholash (peer assessment) orqali talaba nafaqat bilimini, balki mustaqil ishlash qobiliyatini, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashini ham namoyon eta oladi. Bu esa o'quv jarayonini yanada adolatli, samarali va shaxsga yo'naltirilgan qiladi.

Shunday ekan faqat dars metodikasini emas, balki baholash usullarini ham differensial yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Chunki to'g'ri va moslashtirilgan baholash talabaning salohiyatini to'liq namoyon qilishga, o'qituvchiga esa aniq va samarali yo'naltirish berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, til o'qitishda differensial va individual yondashuvlardan foydalanish dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirib, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar va yangicha metodlar bu jarayonni yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi. Bu boradagi izlanishlar kelajakda ham davom etsa, ta'limga yangi yondashuvlarni olib kirishi mumkin.

Differensial yondashuvni nofilologik yo'nalishlarda o'zbek tilini o'qitishda tatbiq etish, ko'p jihatdan dolzarb bo'lishiga qaramay, uni amaliyotda to'laqonli joriy etish yo'lida bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, o'qituvchilarning bu yondashuv bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalari yetarli emasligidir. Ko'plab o'qituvchilar an'anaviy yondashuvlarga tayanib, barcha talabalarga bir xil metodlarni qo'llashga moyil bo'lmoqda. Bu esa talabalarning individualligi va kasbiy yo'nalishlariga mos darslarni tashkil etishda to'siq bo'lib qolishi mumkin. Bunday holatni bartaraf etish uchun o'qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar, amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, differensial ta'limga oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, darslik va o'quv materiallari borasida ham yetarlicha moslashtirilgan resurslar mavjud emas. Hozirgi paytda o'zbek tilini



o'rganayotgan nofilologik yo'nalish talabalari uchun kasbiy matnlar, real kommunikativ vazifalarga asoslangan topshiriqlar, rolly o'yinlar kabi amaliy materiallar zarur. Bu ehtiyojni qondirish uchun raqamli platformalar orqali ochiq va darajalangan topshiriqlar bankini yaratish, har bir mutaxassislikka mos interaktiv kontent ishlab chiqish lozim.

Yana bir muammo – guruhlarda talabalar sonining ko'pligi va dars soatlari cheklanganligi bilan bog'liq. Bu holat har bir talabaga individual e'tibor qaratish imkoniyatini kamaytiradi. Shuning uchun kichik mikroguruhlar tashkil etish, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini joriy etish, onlayn platformalarda qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish orqali bu muammoni yumshatish mumkin. Bunda raqamli savodxonlik darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli qo'llay olish ko'nikmasi o'qituvchi va talabada ham bo'lishi kerak. Bu borada TPACK modeli asosida treninglar o'tkazish va sun'iy intellekt yordamida moslashtirilgan darslarni ishlab chiqish samarali bo'ladi.

Differensial ta'limda yana bir dolzarb muammo – baholash mezonlarining noaniqligi. Har xil darajadagi topshiriqlarni qanday aniqlik bilan baholash mumkinligi haqida o'qituvchilar ko'p hollarda chalkashlikka uchraydi. Bu holat subyektivlikka sabab bo'ladi. Shu bois har bir topshiriq uchun aniq baholash mezonlari, rubrikalar, ochiq tahlil shakllari ishlab chiqilishi lozim. Bu talabaga ham, o'qituvchiga ham natijalar orasidagi muvofiqlikni ta'minlashda yordam beradi.

Differensial yondashuvni amaliy dars jarayonida tatbiq etish uchun quyidagi metodik strategiyalar muvaffaqiyatli deb hisoblanadi.

1. *Fleksibl guruhlash (Flexible Grouping).*

Bu usulda o'quvchilar bilim darajasi, qiziqishi yoki ehtiyojlariga qarab kichik guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga o'ziga mos topshiriqlar beriladi. Guruhlar dars mavzusiga qarab o'zgarib turadi. Bu yondashuv differensial ta'limning muhim vositasidir. Masalan, iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ikki guruhga ajratiladi:

- birinchi guruh “Reklama matni”ni tahlil qilib, uni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholaydi;

- ikkinchi guruh esa “Moliyaviy hisobot tili”ni o'rganib, undagi iqtisodiy terminlar va ularning o'zbekcha ifodalanishiga e'tibor qaratadi.

Har bir guruh topshiriqni o'z mutaxassisligi :rasida, amaliy kontekstda bajaradi. Bu esa tilni kasbiy ehtiyoj bilan bog'lab o'rganishga imkon yaratadi.

2. *Murakkablik darajalari bo'yicha topshiriqlar (Tiered Assignments).*

Har bir mavzu turli darajadagi topshiriqlar orqali taqdim etiladi – soddalashtirilgan, standart va ilg'or darajalar. Tibbiyot yo'nalishi talabalar uchun quyidagi mavzularda topshiriqlar taqdim etish mumkin:

Soddalashtirilgan topshiriq – Bemor bilan to'g'ri muloqot qilish. (salomlashish, shaxsiy ma'lumotlar so'rash, umumiy shikoyatlarni aniqlash kabi rolly o'yin tashkil qilish)



O'rtacha daraja – Bemorning holati haqida qisqacha matn yozish. Bunda kasbiy terminlarni o'zbek tilidagi muqobilini qo'llay olish ko'nikmasini tekshirib olish ham mumkin.

Ilg'or daraja – Kasallik simptomlari asosida tashxis qo'yish va tibbiy maslahat yozish.

3. Loyiha asosida o'rganish (*Project-Based Learning*).

Bu metod talabalarni real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga va tilni amaliy jihatdan qo'llashga o'rgatadi. Har bir loyiha o'quvchining o'z yo'nalishi bilan bog'liq bo'lib, o'zbek tilini kasbiy kontekstda o'rganishga xizmat qiladi.

Masalan, axborot texnologiyalari (IT) yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Texnologiyalar va o'zbek tili" mavzusida loyiha berilishi mumkin. Bu loyiha rasida talabalar quyidagilardan birini amalga oshiradilar:

- o'zbek tilida "*Foydalanuvchi qo'llanmasi*" tuzish (masalan, ilova yoki dastur uchun),

- yoki interfeys tilining qulayligi va soddaligi haqida tahliliy material ishlab chiqish.

Bunday topshiriqlar IT talabalari uchun nafaqat texnik tushunchalarni o'zbek tilida ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi, balki tilga kasbiy-mantiqiy yondashuvni rivojlantiradi. Natijada, o'quvchilar o'z mutaxassisliklarida tilni ijodiy va funksional vosita sifatida qabul qilishni o'rganadilar.

4. *Interaktiv metodlar* (ro'l o'ynash, simulyatsiyalar, debatlar).

Ushbu metodlar o'quvchilarda ijtimoiy til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turizm yo'nalishi talabalari o'rtasida "Mehmonxonada mijoz bilan suhbat" rolli o'yinini tashkil qilish mumkin. Bunda biri mijoz, ikkinchisi administrator rolida o'zbek tilida muomala yuritadi. Bu tilni amaliy nutq holatida qo'llashga yordam beradi.

Albatta, bu metodik strategiyalarni amalga oshirish jarayonida 4K modeli elementlari – kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik differensial yondashuvni yanada samarali va mazmunli qiladi. Masalan, *fleksibl guruhlash* orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashni o'rganadi, bu esa nafaqat til kompetensiyasini, balki ijtimoiy muomala malakalarini ham shakllantiradi. *Murakkablik darajalari bo'yicha topshiriqlar* topshiriqlar esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi – har bir topshiriqni bajarish jarayonida ular axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muqobil fikrlarni solishtirishga intiladi.

Loyiha asosida o'qitishda talabalar kreativ fikrlashni ishga solib, o'z mutaxassisligi rasida yangi g'oyalarni ilgari suradi, ularni amaliyotga tadbiq qilishga harakat qiladi. *Interaktiv metodlar* esa kommunikatsiya va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilib, talabalarni o'z fikrini asosli ifoda qilish, boshqa fikrlarni tinglash va ularga javob bera olishga o'rgatadi. Shu tarzda differensial yondashuvda 4K modeli asosida qurilgan darslar nafaqat til o'rgatadi, balki



zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda differensial yondashuv asosida til o'qitish metodikasi o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun til o'rganishni samarali va maqsadli qiladi. Turli strategiyalar va metodlarning qo'llanilishi ta'lim jarayonini boyitadi va o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nunan, D. (1989). *Designing Tasks for the Communicative Classroom*. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.
3. Slastenin, V. A. (2010). *Pedagogika: Innovatsion yondashuvlar va metodlar*. Moskva: Akademiya.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
5. Qodirov F., Fayzullayeva D. "Ta'limda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari". *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, т. 3, вып. 12, ноябрь 2024 г., сс. 9-13, <https://inlibrary.uz/index.php>
6. Shavkat Mamarajabov. *Differensial ta'lim: innovatsion pedagogik yondashuvlar*. (2025). *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(2). <https://.org/10.5281/zenodo.14995166>
7. Hakimxodjayev, N. (2025). *Differensial va individual yondashuvlar asosida ingliz tilini o'qitish*. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 4(8), 93–96. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/73057>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/EJVJ3117

TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Atamurodova Gulnora Shermurodovna

ISFT instituti Samarqand filiali o'qituvchisi

gulnoraatamurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida talaffuz va imlosi muammoli bo'lgan nutq tovushlarining o'rganilishi, to'g'ri talaffuz ko'nikmasini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda so'zlash malakasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Maqolada unli va undosh tovushlar ustida ishlashga qaratilgan samarali mashqlar, amaliy topshiriqlar, fonetik tahlil va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar keltiriladi. Shuningdek, talaffuzdagi xatolarning oldini olish, so'zlarning to'g'ri talaffuzi hamda yozilishi orasidagi bog'liqlikni tushuntirishga e'tibor qaratiladi. Taklif etilgan usullar orqali o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilish ko'nikmasi shakllantiriladi, o'quvchilarni ravon va aniq talaffuz qilish malakasini oshiradi. Maqola umumta'lim maktablarida ona tili darslarini sifatli o'tkazishda foydali ilmiy-amaliy manba bo'la oladi.



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

